



## Toshkent kimyo-texnologiya institutida 10-14 fevral kunlari tashkil etilgan “WOMEN IN STEM” XALQARO FORUM HISOBOTI

Xalqaro festival doriyasida 10-11 fevral “Kimyogar ayollar – 2023”, 14 fevral “MUHANDIS AYOLLAR 0+” Toshkent kimyo-texnologiya instituti, “Noorganik moddalar kimyoviy texnologiyasi” fakultetida 100007 Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek 41 manzil bo‘yicha oflayn/onlayn masofaviy zoomda bo‘lib o‘tdi.

Masofaviy ishtirokchilar uchun: Zoom havola:  
<https://us02web.zoom.us/j/4804980113>, <https://us06web.zoom.us/j/83729620462>

### Asosiy e‘lonimiz

| Sana      | Vaqt        | Manzil                               |
|-----------|-------------|--------------------------------------|
| 10-fevral | 10:00-17:00 | Toshkent kimyo-texnologiya instituti |
| 11-fevral | 10:00-14:00 | online                               |
| 14-fevral | 14:00-17:00 | Toshkent kimyo-texnologiya instituti |

“Kimyogar ayollar – 2023” Xalqaro ilmiy Forumi “Women in STEM” festivalining tadbirlaridan biri bo‘lib, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, O‘zbekiston ixtirochi ayollar markazi va Hindistonning Integral universiteti bilan hamkorlikda tashkil etildi. Forumning maqsadi - olim ayollarning respublika va xorijiy mamlakatlarda erishgan salmoqli natijalarini ommalashtirish, ularning madaniy-ma‘rifiy, siyosiy va iqtisodiy faoliyatdagi nufuzini yanada oshirishdir.



**“Kimyogar ayollar - 2023” ilmiy forumida O‘zbekiston, Hindiston, Qozog‘iston, Belorussiya, Rossiya Federatsiyasi va boshqa davlatlardan 250 dan ortiq olim ayollar kimyoviy texnologiya, oziq-ovqat maxsulotlari ishlab chiqarish, oziq-ovqat xavfsizligi, biotexnologiya, farmasevtika, ekologiya, iqtisodiyot, ta‘lim sohalarida o‘z ilmiy ishlanmalari natijalari bilan qatnashdilar, hamda Norkulova Karima Tuxtabayevna - Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisining Innovatsiyalar va ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari; Musurmanova Oynisa Musurmanovna -“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti direktor o‘rinbosari qatnashdi. Horijiy universitetlardan Integral universiteti Lakxnau (Hindiston) dotsenti va bioinjeneriya kafedrasini mudiri prof. Alvina Farooqi, Dr. Poonam Sharma va Gyanendra Tripathi; Belarussiyaning Yanka Kupala Grodno davlat universitetidan prof. Karpitskaya Marina; Janubiy Qozog‘iston davlat pedagogika universiteti Amirbekova Elmira va Tuymebaeva Tulimjan; afi Utebaev nomidagi Atirau neft va gaz universitetidan Kalaulova Altinay va Imangalieva Asem, Rossiya kimyo-texnologiya universiteti dekanlari Sviridenkova N.V va Staxanova S.V. TKTi ga tashrif buyurib, Forumda faol ishtirok etdi. Ilmiy forum doirasida institutda bajarilgan innovatsion ilmiy ishlanmalar ko‘rgazmasi tashkil etildi.**







“Women in STEM” festivali tadbirlari BMT tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun barqaror rivojlanishning 17 ta maqsadidan biri hisoblanadi.

“**Kimyogar ayollar – 2023**” ilmiy forumi yo‘shlarda bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishdan iborat hamda yosh xotin-qizlarni fan va ta’limga faol jalb etish, 0+yoshdan boshlab kimyo sanoati va muhandislikka bo‘lgan qiziqishlarini rag‘batlantirish, “Ustoz-shogird” tizimini yanada takomillashtirish, yosh ayol va qizlarning salohiyatini ilmiy – innovation faoliyatga keng jalb etish, xotin-qizlarni qo‘llab quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning ko‘lamini kengaytirish, ularning madaniy-ma’rifiy, siyosiy va iqtisodiy faoliyatdagi nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.







10-14 fevral kunlari "Women in STEM" festivali doirasida "Kimyogar ayollar" ilmiy forumi va yosh olim ayollar ishtirokida "Muhandis ayollar 0+" davra suhbatlari, Osiyo, Afrika va Markaziy va Janubiy Amerika, Yevropa, Shimoliy Amerika mamlakatlarining yetakchi ekspertlari va olimlarining mahorat darslari va institut olim ayollarining innovatsion ilmiy ishlanmalar ko'rgazmasi, shuningdek, kimyo va texnika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning badiiy-musiqiy chiqishlari, institut iqtidorli talabalarining erishgan yutuqlari haqidagi hikoyalari hamda maktab va texnikum o'quvchilarining savollariga javoblar olish singari tadbirlar tashkil etildi.

















2013-yil 20-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan “Taraqqiyot uchun fan, texnologiya va innovatsiyalar” rezolyusiyasida “barcha yoshdagi ayollar va qizlarning fan, texnologiya va innovatsiyalardan teng va to‘liq foydalanishi gender tenglik kafolatidir” deyilgan. 2009 – yil 22-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida 11-fevralni

“Xalqaro fandagi ayollar va qizlar kuni” deb e’lon qilish to’g’risida rezolyusiya qabul qilindi. Shunday qilib, bu kun BMTning xalqaro kunlardan biriga aylandi.

“Women in STEM” festivali (Muhandis ayollar ilmiy haftaligi) tadbirlari BMT tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha bo’lgan davr uchun barqaror rivojlanishning 17 ta maqsadlaridan biri hisoblangan **4, 8, 9, 17** va eng muhimi **5**-maqsad bo’lmish Gender tenglik (**Goal 5: Gender Equality**), “Barcha ayollar va qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish va gender tengligini ta’minlash”ga yordam berdi.

“Muhandis ayollar 0+ davra suhbatlari Xalqaro nazariy va amaliy kimyo ittifoqi (IUPAC) tashabbusi bilan butun dunyoda keng nishonlanadigan “Global ayollar nonushtasi” tadbiri doirasida ilk bor Toshkent kimyo-texnologiya institutida tashkil etildi. Bunda BMT tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha bo’lgan davr uchun **barqaror rivojlanishning 17 ta maqsadlaridan** hisoblangan



2015-yildagi BMT Sammitida dunyo yetakchilari tomonidan qabul qilingan “Women in STEM” festivali (2023 yilgi muhandis ayollar ilmiy haftaligi) tadbirlari BMT tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha bo’lgan davr uchun barqaror rivojlanish va uning 17 ta maqsadlari Global kun tartibi o’ziga hos bo’lgan “yo’l xaritasi”dan iborat, ayollar va qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish va gender tengligini ta’minlash ushbu 17 ta maqsadning har birining ajralmas qismi hisoblanadi. Faqatgina ayollar va qizlarning huquqlarini barcha maqsadlar bo’yicha ta’minlash yo’li bilan adolat va integrasiyaga, shuningdek barcha uchun xizmat qiladigan va atrof muhitni asraydigan iqtisodni yaratishga erishish mumkin.

**“Muhandis ayollar 0+” davra suhbatlari IUPAC Xalqaro nazariy va amaliy kimyo ittifoqi tashabbusi bilan butun dunyoda keng nishonlanadigan “Global ayollar nonushtasi” tadbiri doirasida TTKI da tashkil etildi.**



Toshkent kimyo-texnologiya institutida tashkil etilgan “Women in STEM” festivali BMT tomonidan 2015 yilda e’lon qilingan “11-fevral- Fanda ayollar va qizlar xalqaro kuni”ni nishonlash doirasida tashkil etilgan bo’lib, tadbir IUPAC xalqaro tadbirlar ro’yxatiga kiritilgan: <https://iupac.org/gwb/2023/women-engineers-0/>.







Faol ishtirokchilar va taqdimotchilar insitutimizning maxsus to'plam sovg'alari, AQSH elchixonasi, ba'zi taqdimotchilarning esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi, shular: sertifikat, tashakkurnoma, TKTI va GWB ramzi tushirilgan foydali zanjabilli pryanik, AQSH elchixonasi haqida magnit va axborotnoma va boshqalar.





“Ayollar uchun global nonushta” g’oyasi 2011 yilning 18 yanvar kuni tongda dunyoning 44 ta mamlakatidan kelgan muhandis ayollar maqsadli uchrashib birga nonushta qilganlarida tug’ildi. Ular, shuningdek, 27-28 yanvar kunlari Parijda bo’lib o’tgan va xalqaro kimyo yilligining rasmiy ochilishiga bag’ishlangan xalqaro tarmoq tadbirida ham ishtirok etdilar. Bugungi kunga qadar butun dunyoda 500 ga yaqin ayol muhandislar ishtirokida 100

ga yaqin nonushta uyushtirildi va bu tadbir dunyo olimlari ayollarining eng yirik yig'inlaridan biriga aylandi.

IYC2011 tadbiri tashkilotchilari videochat yoki Skype orqali bir-birlari bilan muloqot qilish uchun turli nonushtalar uyushtirishdi va shu tariqa ishtirokchilar butun dunyo bo'ylab to'lqinning sport stadioni orqali tarqalishiga o'xshash kimyoviy "qo'l siqish"ni yaratishdi. Shundan so'ng kimyoviy "qo'l siqish estafetasi" Rossiyaga, keyin esa Yevropa va Afrikaga yetib keldi. Yoxannesburgdagi Janubiy Afrika kimyo institutida nonushta bo'lib o'tdi, unda IUPAC prezidenti Nikol Moro (Fransiya) va Amerika kimyo jamiyati prezidenti Nensi Jekson ishtirok yetdilar. Tadbir Niderlandiya va Buyuk Britaniyada ayniqsa yaxshi qo'llab-quvvatlandi; har ikki mamlakatda 10 dan kam bo'lmagan turli tadbirlar o'tkazildi va Pekin voqeasi va Londondagi asosiy RSC tadbiri o'rtasidagi video aloqa Osiyoni Yevropa bilan mukammal bog'ladi. So'ngra, Argentina, Braziliya, Paragvay, Peru, Venesuyela va Kolumbiyaning qo'l siqishi, Shimoliy Amerika nonushtasi Tinch okeani bo'ylab Gavayi orollari bilan bog'lanadi, u xalqaro sanada Yangi Zelandiyadagi Vellington bilan bog'lanadi va shu bilan 24 soatda yakunlandi.

2019-yil 12-fevral kuni IUPAC ning 100 yilligini nishonlashda 50 dan ortiq turli mamlakatlardan ayol muhandislar va erkak advokatlar kimyo sohasidagi ayol olimlarning rolini e'tirof yetish va oshirishga qaratilgan global tarmoq tadbiri bo'lgan ikkinchi IUPAC Global Ayollar nonushtasida ishtirok yetishdi. Keyinchalik, nonushta tadbirlari Osiyo, Yevropa, Afrikada va keyinchalik Amerikada muvaffaqiyatli boshlandi. 2019 yildan boshlab IUPAC Global Women's Breakfast har yili o'tkaziladigan tadbirga aylandi.

**"Muhandis ayollar 0+" davra suhbatlari va Butunjahon ayollar nonushtasining maqsadi** olim ayollarga o'z yutuqlariga e'tibor qaratish, o'zlarining professional tarmoqlarini kengaytirish, bir-biridan o'rganish va akademik ayollar sanoat va davlat idoralarida duch keladigan muammolar haqida xabardorlikni oshirish uchun ajoyib imkoniyatni taqdim yetishdan iborat.

Konferensiya materiallari bilan quyidagi manzilda tanishish mumkin:

<http://tkti.uz/faoliyatlar/global-womens-breakfast-63ce1a14d6e1901d34d5c39d>

Barcha video va rasmlar TKTI ning rasmiy sahifalari: "Instagram", "Facebook", "Telegram", "LinkedIn", "Vkontakte", "YouTube" ga #muhandisayollar #женщиныхимики #womeninstem #GWB2023 #BreakingBarriersinScience xashtag ishlatilgan holda joylashtirildi.

### **FESTIVAL TASHKILOTCHILARI:**

- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi;
- Toshkent kimyo-texnologiyasi instituti;
- Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi;
- O'zbekiston Ixtirochi ayollari markazi
- Integral universiteti (Hindiston)

### **HAMKOR TASHKILOTLAR:**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti qoshidagi akademik litsey  
Toshkent shahridagi 34, 116, 142, 223, 241, 279, 286, 308, 343, 205, 248, 148 va 121-  
maktab

### TAKLIF ETILGAN MEHMONLAR

|     |   |  |
|-----|---|--|
| 1.  | <b><i>Maxkamova Zulayxo<br/>Baxriddinovna</i></b> | O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi                   |
| 2.  | <b><i>Norkulova Karima<br/>Tuxtabayevna</i></b>   | Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisining Innovatsiyalar va ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari             |
| 3.  | <b><i>Musurmanova Oynisa<br/>Musurmanovna</i></b> | "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti direktor o'rinbosari                                     |
| 4.  | <b><i>Turdikulova Shaxlo<br/>Utkurovna</i></b>    | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazir o'rinbosari   |
| 5.  | <b><i>Jamoldinova Odina<br/>Rasulovna</i></b>     | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazir maslahatchisi   |
| 6.  | <b><i>Rashidova Sayyora<br/>Sharopovna</i></b>    | O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Polimerlar fizikasi va kimyosi instituti direktori, akademik |
| 7.  | <b><i>Sara Noshadi</i></b>                        | UNESCOning O'zbekiston Respublikasidagi vakili   |
| 8.  | <b><i>Matilda Dimovska</i></b>                    | BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi doimiy vakili   |
| 9.  | <b><i>Alvina Farooqui</i></b>                     | Integral universiteti Lakxnau (Hindiston) dotsenti va bioinjeneriya kafedrasini mudiri                   |
| 10. | <b><i>Poonam Sharma</i></b>                       | Integral universiteti biomuhandislik kafedrasini assistenti (Hindiston)                                  |
| 11. | <b><i>Gyanendra Tripathi</i></b>                  | Integral universiteti Lakxnau (Hindiston)  |
| 12. | <b><i>Karpitskaya Marina</i></b>                  | Yanka Kupala Grodno davlat universiteti, Belarus   |
| 13. | <b><i>Amirbekova Elmira</i></b>                   | Janubiy Qozog'iston davlat pedagogika universiteti, Qozog'iston  |
| 14. | <b><i>Tuymebaeva Tulimjan</i></b>                 | Janubiy Qozog'iston davlat pedagogika universiteti, Qozog'iston  |
| 15. | <b><i>Kalaulova Altinay</i></b>                   | Safi Utebaev nomidagi Atirau neft va gaz universiteti, Qozog'iston                                       |
| 16. | <b><i>Imangalieva Asem</i></b>                    | Safi Utebaev nomidagi Atirau neft va gaz universiteti, Qozog'iston                                       |
| 17. | <b><i>Mary Garson</i></b>                         | Global nonushta asoschisi  |
| 18. | <b><i>Laura McConnell</i></b>                     | Global nonushta hamraisi   |

|     |  |  |
|-----|--|--|
| 19. | <b><i>Singto Sakulphaemaruethai</i></b>    | Tailand Polimer Jamiyati, Tailand                                      |
| 20. | <b><i>Peter McCann</i></b>                 | Toshkent kimyo-texnologiya instituti rektor maslahatchisi, O'zbekiston |
| 21. | <b><i>Lee Geun Seong</i></b>               | Toshkent kimyo-texnologiya instituti professori, O'zbekiston           |
| 22. | <b><i>Octavio Calvo</i></b>                | Toshkent kimyo-texnologiya instituti professori, O'zbekiston           |
| 23. | <b><i>Ivanov Aleksandr Vasilyevich</i></b> | Toshkent kimyo-texnologiya instituti professori, O'zbekiston           |
| 24. | <b><i>Ivanova Natalya Vladimirovna</i></b> | Toshkent kimyo-texnologiya instituti professori, O'zbekiston           |
| 25. | <b><i>Kuen Keehyun</i></b>                 | Toshkent kimyo-texnologiya instituti professori, O'zbekiston           |

Tayyorladi: Xidirkulova M. - Axborot-tahlil markazi  
Aripova G. - Xotin-qizlar kengashi  
20.02.2023